

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti hamda Hidrometeorologiya ilmiy tadqiqot instituti o‘rtasida o‘zaro hamkorlik aloqalari bo‘yicha
SHARTNOMA № 31/2022

Tashkent shahri

“16” fevral 2022-yil

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 8-oktyabrdagi PF–5847-son Farmoni va 2021-yil 16-iyundagi “Oliy ta‘lim sohasidagi islohotlar natijadorligi hamda yangi o‘quv yiliga tayyorgarlik jarayonlari to‘g‘risida” o‘tkazilgan videosektor yig‘ilishi 34-sonli bayoni hamda 2021 yil 10 dekabrda qabul qilingan “Iqtisodiyot tarmoqlari uchun muhandis kadrlarni tayyorlash tizimini innovatsiya va raqamlashtirish asosida tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-42-sonli qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida **“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti** (keyingi o‘rinlarda Universitet deb ataladi) nomidan Ustavi asosida ish yurituvchi **rektor B.S.Mirzayev** bir tomondan **Gidrometeorologiya ilmiy tadqiqot instituti** (keyingi o‘rinlarda Institut deb ataladi) Ustavi asosida ish yurituvchi direktor **F.S.Agzamov** ikkinchi tomondan ushbu o‘zaro hamkorlik aloqalari bo‘yicha shartnoma tuzildi.

1. Umumiy qoidalar

Oliy ma‘lumotli mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish orqali respublika oliy ta‘lim tizimida yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning mazmunini mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollari, jamiyat ehtiyojlari, ilm-fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda tubdan takomillashtirish maqsadida quyidagi yo‘nalishlarda hamkorlik amalga oshiriladi:

- 1.1. Universitet va Institutning o‘zaro samarali hamkorligini yo‘lga qo‘yish.
- 1.2. Institutda professor-o‘qituvchilarning qisqa muddatli stajirovkalarini tashkil etish.
- 1.3. Institutning mutaxassislarga bo‘lgan talabidan kelib chiqqan holda ta‘lim yo‘nalishlar va mutaxassisliklarning o‘quv rejalari, fan dasturlari, o‘quv adabiyotlari, shu jumladan o‘quv-metodik komplekslarining mazmuniga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha takliflar berish.
- 1.4. Hamkorlikda Institutning istiqbolli rivojlantirish dasturini hisobga olib, oliy malakali kadrlarga bo‘lgan ehtiyojini yillar kesimida ta‘lim yo‘nalishlar hamda mutaxassisliklar boyicha ishlab chiqish.
- 1.5. Institutning ilmiy, texnologik muammolarini o‘rganish va ularning yechimi bo‘yicha ilmiy-innovatsion tadqiqotlar o‘tkazish, maqbul yechim va amaliy takliflar ishlab chiqish.
- 1.6. Zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida iqtisodiyotning tegishli tarmoqlari bo‘yicha ilmiy-innovatsion tadqiqot ishlarini hamkorlikda bajarish, natijalarni ishlab chiqarishga joriy etish, tijoratlashtirish faoliyatlarini yo‘lga qo‘yish.
- 1.7. Hamkorlikda ilmiy-uslubiy ishlar, ilmiy maqolalar tayyorlash va ularni nashr qilish.
- 1.8. Hamkorlikda sohaning dolzarb muammolari bo‘yicha Institut mutaxassislari, olimlar, doktorantlar va iqtidorli talabalarning uchrashuvlari, ilmiy seminarlarini tashkil qilish.

1.9. Institutda talabalar amaliyotini tashkil etish hamda bo'sh ish o'rinlariga bitiruvchilarni ishga joylashtirish choralarini ko'rish.

1.10. Universitet o'qituvchilarining ilmiy tadqiqot institutida ilmiy-amaliy tadqiqotlar o'tkazishiga sharoit yaratish.

1.11. Hamkorlikda Institutni istiqbolli rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish.

1.12. Universitetda Institut mutaxassislari, ishchi-xodimlarini malakalarini oshirishni ta'minlash;

1.13. Mazkur shartnomaning tuzilishi va undagi shartlarning bajarilishi Universitet va Institut orasida tuziladigan o'zaro manfaatli boshqa shartnomalarga zid bo'lmazligi shart.

2. Tomonlarning vazifalari va majburiyatlari

2.1. Ishlab chiqarish, ilm-fan va ta'lim o'rtasida integratsiyani chuqurlashtirish maqsadida Qo'mitaga tegishli ilmiy-texnik rivojlantirish yo'nalishlari muammolarini aniqlash.

2.2. Institutning ilmiy-texnik rivojlantirish muammolarini Universitet bilan xo'jalik shartnomalarini tuzgan holda amalga oshirish, xo'jalik shartnomalarini bajarish ishlariga doktorantlar, magistrantlar va iqtidorli talaba yoshlardan iborat tadqiqotchilarni tizimli ravishda jalb qilishni tashkil etish.

2.3. Universitet professor-o'qituvchilari, ilmiy xodimlari va talabalari bilan Institutga oid yangiliklar, rivojlantirish istiqbollari, ta'lim mazmunini takomillashtirish, ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish va kelgusidagi vazifalarni belgilab olish yuzasidan uchrashuvlar o'tkazib borish.

2.4. Universitet ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari talabalari uchun, mahsulot ishlab chiqarishning texnologik jarayonlari va Institutga tegishli ilmiy-texnik rivojlantirish yo'nalishlari muammolari bo'yicha Institutning yetakchi mutaxassislari tomonidan ma'ruza-taqdimotlarni tashkillashtirish.

2.5. Institutga tegishli ilmiy-texnik rivojlantirish yo'nalishlari muammolari bo'yicha bitiruv malakaviy ishi va magistrlik dissertatsiyalari hamda kurs ishi va loyiha mavzularini shakllantirishda amaliy yordam berish, shart-sharoitlar yaratish.

2.6. Doktorantlar, magistratura talabalarini qo'mitaning muammoli masalalariga bag'ishlangan dissertatsiya mavzulari ustida ishlashini, shuningdek, tajriba-sinovlarni Institutda o'tkazish, amaliyotga tatbiq etilgan ishlar mualliflari bo'lgan hamda ixtirochilik patentini qo'lga kiritgan o'qituvchilar doktorant va magistrnlarni qo'mita hisobidan moddiy rag'batlantirish;

2.7. Talabalarni amaliyotlarini Institutda o'tashni yo'lga qo'yish.

2.8. Universitet o'qituvchilarining ilmiy tadqiqot institutida amaliy tadqiqotlar o'tkazishga sharoit yaratib berish;

2.9. Ilmiy tadqiqot institutida Universitet professor-o'qituvchilarni sohaga oid qisqa muddatli stajirovkalarni tashkil etish.

2.10. Ta'tillar davrida Universitet talabalarini Ilmiy tadqiqot institutida vaqtinchalik ish bilan ta'minlash;

2.11. Ilmiy tadqiqot institutida bo'sh vakant o'rinlarni malakali bitiruvchilar bilan to'ldirib borish;

2.12. Institut rahbari va mutaxassislarini bitiruvchilarning yakuniy davlat attestatsiyalarida ishtirok etishini ta'minlash.

2.13. Universitet talabasiga Ilmiy tadqiqot institutidan mas'ul xodimini biriktirish, bunda biriktirilgan xodim amaliyotchi bilan ishlash ko'nikmasiga ega bo'lishini ta'minlash, ilmiy tadqiqot institutida amaliyotchidan unumli foydalanishni yo'lga qo'yish, amaliyotchilar uchun ish joyi va amaliyot davrida foydalanish uchun zaruriy materiallar ajratilishini tashkil etish.

2.14. Universitetning ta'lim yo'nalishidagi har bir talabaning 2-kursdan boshlab ilmiy tadqiqot institutida malakaviy amaliyotlarni tizimli ravishda o'tkazilishiga ko'maklashish va ixtisoslik fanlarining amaliy mashg'ulotlarini bevosita ishlab chiqarishda tashkillashtirishni amalga oshirishga sharoit yaratish, sohaga mos ta'lim yo'nalishlari mutaxassisliklari bo'yicha bitiruvchilarni ishga joylashtirish bo'yicha aniq choralar ko'rish.

2.15. Universitet va Institut innovatsion mahsulotlarni tijoratlashtirishni yo'lga qo'yish.

3. Shartnomaning bajarilish muddati

3.1. Bu shartnoma imzolangan kundan boshlab 10 yil muddatga amal qiladi.

3.2. Shartnomada ko'rsatilgan ishlarni to'liq va samarali bajarish uchun har o'quv yilida tadbirlar tuziladi va tasdiqlanadi.

3.3. Qo'shimcha kelishuv asosida bu shartnomaning muddati uzaytirilishi, o'zgarishi yoki bartaraf etilishi mumkin.

3.4. Shartnoma uch nusxada tuziladi va bir xil yuridik kuchga ega.

**“Toshkent irrigatsiya va qishloq
xo'jaligini mexanizatsiyalash
muhandislari instituti” Milliy tadqiqot
universiteti**

100000, Toshkent sh., Qori-Niyoziy
ko'chasi, 39 uy.

Tel.: +998(71) 237-19-68

**“TIQXMMI” Milliy tadqiqot
universiteti rektori**

B.S.Mirzayev



**Gidrometeorologiya ilmiy tadqiqot
institutini**

100043; Toshkent shahri, Yunusobod
tumani, Bodomzor yo'li 1-tor ko'chasi,
72 uy.

Tel.: +998(71) 235-83-25

**Gidrometeorologiya ilmiy tadqiqot
institutini direktori v.b.**

F.S.Agzamov

